



## Introduction of a modular credit system into the activities of information resource centers when creating independent tasks from linguists

Malokhat Akhmedova

Tashkent medical academy

---

### ARTICLE INFO

---

**Article history:**

Received December 2021  
Received in revised form  
15 December 2022  
Accepted 20 January 2022  
Available online  
25 February 2022

---

**Keywords:**

credit-modular system,  
oral competence,  
academic mobility,  
well-defined assessment  
system.

---

### ABSTRACT

---

In this article, on the basis of the credit-modular system of the university and the activities of the IRC, an integrated approach to improving the activities of independent education in higher education is analyzed. The activity of higher educational institutions, local self-government, independent universities is considered. The new generation of educational books created by higher educational institutions on the basis of world best practices, which are based on the principles of a credit-modular system, have been studied. It may be worth considering that the structure of the ECTS credit-modular system consists of two necessary elements: the organization of personality-oriented learning and the achievement of transparency in education, increased flexibility in education and increased student mobility.

2181-1415/© 2022 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss1-pp142-149>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## ARM faoliyatida tilshunoslik fanlaridan mustaqil topshiriqlar tuzishda modul-kredit tizimining joriy etilishi

---

### ANNOTATSIYA

---

OTM kredit-modul tizimi va ARM faoliyati asosida OTMdA mustaqil ta'lif faoliyatini takomillashtirishning integratsion-metodik yondashuvi, oily ta'lif muassasalari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish, mustaqil boshqaradigan OTM faoliyati tahlil etilgan. Oliy ta'lif muassasalarini ilg'or jahon tajribalari asosida yaratiladigan yangi avlod darsliklari kredit-modul tizimining tamoyillariga asoslanadi. Shaxsga yo'naltirgan ta'lifni tashkil etish va ta'linda shaffoflikka erishish, ta'linda moslashuv-chanlikni kuchaytirishi hamda talabalar mobilligini kuchaytirish

---

**Kalit so'zlar:**

kredit-modul tizimi,  
og'zaki kompetensiya,  
akademik harakatchanlik,  
aniq belgilangan baholash  
tizimi.

---

ECTS kredit-modul tizimi tarkibi ikki zarur elementdan iborat ekanligi muhim ahamiyatga ega.

## **Внедрение модульно-кредитной системы в деятельность информационно-ресурсных центров при создании самостоятельных заданий от лингвистов**

---

### **АННОТАЦИЯ**

**Ключевые слова:**  
кредитно-модульная система,  
устная компетенция,  
академическая мобильность,  
четкая система оценивания.

В данной статье, на основе кредитно-модульной системы ВУЗа и деятельности ИРЦ анализируется комплексный подход к совершенствованию деятельности самостоятельного образования в высшей школе. Рассмотрена, деятельность высших учебных заведений, местного самоуправления, самостоятельных вузов. Изучены учебные книги, нового поколения, создаваемые высшими учебными заведениями на основе передового мирового опыта, которые, строятся на принципах кредитно-модульной системы. Возможно стоит учесть, что структура кредитно-модульной системы ECTS, состоит из двух необходимых элементов: организация личностно-ориентированного обучения и достижение прозрачности в образовании, усиление гибкости в образовании и усиление студенческой мобильности.

Dunyoda oliy ta'lim tizimi talabalarning mustaqil faoliyatiga asoslanganligi bilan muhim ahamiyatga ega. Rivojlangan davlatlarda tillarni o'qitishga doir ilmiy adabiyotlarda o'quv topshiriqlarning mazmuniga, samaradorlik darajasiga alohida e'tibor beriladi va ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim topshiriqlaridan savol, tezkor savol-javob, topshiriq va matn tahlillari va mashqlardan unumli foydalaniladi. Xalqaro tajribada o'quv topshiriqlari o'zaro muloqotning samarali bo'lishiga qaratiladi. Amalda foydalanilgan mustaqil, o'quv topshiriqlari avvaldan belgilangan ma'lum mezonlar asosida shakllantiriladi.

O'zbekistonda ham oily ta'lim tizimida modul-kredit tizimiga o'tish jarayonlarida islohot kechmoqda. Bunga tayyor bo'lish uchun talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish zarur. Tilshunoslik fanlari ona tili o'qitish metodikasi lingvodidaktik kompetensiyaviy yondashuvga asoslanmoqda, dars jarayonida linngvistik kompetensiyalarni shakllantirish nutqiy kompetensiyalarning rivojlanishiga olib kelishi ko'zda tutilmoxda. Xalqaro tajribalar asosida til o'rganishga qo'yilgan aniq talablar orqali (tinglab tushunish), (gapirish), (o'qish) va (yozish) malakalari rivojlantiriladi. Ona tili o'qitishda mazkur yondashuvdan biroz ijodiyroq foydalanish maqsadga muvofiq, bizningcha. Chunki talabalar tilning tashuvchilarini sifatida muayyan nutqiy ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan holda OTM ga keladilar. Talabalarda ona tilidan (ular tilning tashuvchilarini bo'lgani uchun) ba'zi ko'nikmalargina rivojlantiriladi, asosan, ulardagi lingvodidaktik ko'nikmalarni takomillashtirish gal dagi vazifamiz hisoblanadi. Ayniqsa, o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilarini ona tilida matn yoki suhbatni tinglab tushunadi, o'qiy oladi, gapira oladi va yoza oladi. Bunday vaziyatda ona tili o'qitish metodikasining didaktik vazifasi talabalarda eshitganlarni *to'g'ri tushuna olish, adabiy tilda ravon*

*mantiqan izchil gapira olish, matnni o'qib tushuna olish hamda to'g'ri va mazmunli yoza olish ko'nikmalarini takomillashtirish lozim.*

O'zbekiston Respublikasi Mustaqillik yillarda zamonaviy talablarni hisobga olgan holda kutubxona tarmog'ini tashkil qilishni takomillashtirish, o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual ehtiyojlarini qondirishga, madaniy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni saqlab qolishga yo'naltirilgan prinsiplarni yangi axborot markazlarini barpo etish, shuningdek, aholini yanada kengroq va tizimli axborot bilan ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida 2006-yil 20-iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholini axborot kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida"gi PQ-381-son Qarori qabul qilindi. Ushbu Qaror bilan quyidagilar axborot-resurs markazlarining asosiy vazifalari etib belgilandi:

- oliy ta'lim muassasalari talabalari hamda aholining zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda muntazam ta'lim olishi va mustaqil ravishda ta'lim olishiga ko'maklashish;

- milliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni keng ko'lamda targ'ib qilish, xalqning madaniy-tarixiy merosidan bahramand bo'lismeni ta'minlash, ma'naviy boy va uyg'un kamol topgan shaxsning ijodiy o'sishi uchun imkoniyat yaratib berish;

- yangi axborot texnologiyalari (ma'lumotlar elektron bazalari, internet resurslari) asosida aholiga axborot xizmati ko'rsatish;

- madaniy, ta'lim, axborot hamda boshqa dastur va loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun ta'lim muassasalari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, milliy madaniyat markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish.

Axborot-resurs markazlari deganda, ta'lim muassasalarining o'quv, ilmiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalarini qamrab oladigan, shuningdek, ushbu sohalarning rivojlani-nishda faol qatnashadigan aholining tarkibiy qismi tushuniladi. Hozirgi zamon axborot-resurs markazlari an'anaviy kutubxonachilikni saqlagan holda axborot davriga mos ish olib borishlari talab etiladi va ular oliy ta'lim muassasalarining o'quv, ilmiy va ma'naviy-ma'rifiy faoliyatini axborot bilan ta'minlash vazifasini bajaradi hamda :

- mustaqil ta'lim faoliyati muntazam ta'lim olishi va mustaqil ravishda ta'lim olishiga ko'maklashish;

- milliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni keng ko'lamda targ'ib qilish, xalqning madaniy-tarixiy merosidan bahramand bo'lismeni ta'minlash, ma'naviy boy va uyg'un kamol topgan shaxsning ijodiy o'sishi uchun imkoniyat yaratib berish;

- yangi axborot texnologiyalari (ma'lumotlar elektron bazalari, internet resurslari) asosida aholiga axborot xizmati ko'rsatish;

- madaniy, ta'limiy, axborot hamda boshqa dastur va loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun oily ta'lim muassasalari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish, mustaqil boshqaradigan OTM faoliyati bilan bog'lashimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 19-noyabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlari uchun kredit-modul tizimi asosida ta'lim jarayonlarini tashkil etish bo'yicha qisqa muddatli trenerlar tayyorlash kursini tashkil etish to'g'risida"gi 483-sonli Buyrug'i, "Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 19-noyabrdagi 483-sonli Buyrug'i ijrosini ta'minlash to'g'risida"gi 01-387-sonli Buyrug'i Oliy ta'lim tizimida keng joriy etilmoqda [6.1.]. Ta'lim muassasalari kutubxonalari millatning ma'naviy madaniyati va ma'naviy ongini shakllantirish va saqlashda, adabiyot va kitobxonlikni targ'ib qilishda muhim rol bajaradi. Uning maqsadi nafaqat kitoblarni

yig'ish, kitoblarni nashr etish va tarqatish, balki ilmiy g`oyalar va qadriyatlarni asrab-avaylash, uni avloddanavlodga va uni keng kitobxonlar ommasiga yetkazishdir [5.1]. Oliy o'quv yurtlari kutubxonalariga, ya'ni ARMga yuklatilgan vazifalar ilmiy tafakkurni rivojlantirish va jamiyatning dunyoqarashini har tomonlama rivojlantirishga hissa qo'shishdan iborat. Oliy ta'lim muassasalarini ilg'or jahon tajribalari asosida yaratiladigan yangi avlod darsliklari, o'quv qo'llanmalari hamda davriy nashrlar bilan tizimli ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-oktyabr kuni 816-son "Oliy ta'lim muassasalarini o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. 2020 yilda "OTMdA o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida"gi Nizom joriy etilishi ushbu Qaror bilan "Oliy ta'lim muassasalarida foydalanish uchun xorijiy o'quv va ilmiy adabiyotlar ro'yxatini shakllantirish, ularni xarid qilish va foydalanish tartibi to'g'risida" gi Nizom, "Xorijiy o'quv va ilmiy adabiyotlarni tarjima va tahrir qilish hamda ekspertizadan o'tkazishni amalga oshiradigan mutaxassis va professor-o'qituvchilar mehnatiga haq to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomi, "Oliy ta'lim muassasalarini o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash hamda darsliklar va o'quv qo'llanmalarini yangilab borish tartibi to'g'risida" Nizomi hamda mustaqil ta'limi tizimi uchun o'quv adabiyotlarini yaratishga qo'yilgan talablar tasdiqlangan. Zamonaviy ta'lim muassasasi kutubxonasi -axborot-resurs markazlari uchun yuqori sifatli axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish uchun zarur bo'lgan bir necha jihatlarni ko'rib chiqamiz. Eng asosiysi, OTMdA axborot-resurs markazlaridan foydalanuvchilar uchun qulay sharoitlar yaratilgan bo'lisi zarur. Axborot-resurs markazlari odatdagи kutubxonalardan farq qiladi, chunki uning fondidagi adabiyotlar Oily ta'lim muassasasi yo'naliishiga mos kelishi kerak, Oliy ta'lim muassasasi yo'naliishidan kelip chiqib, mutaxassislar tayyorlash bilan bog'liq maksimal miqdordagi turli xil adabiyotlar bilan to'ldirilgan bo'lisi shart. Axborot-resurs markazlari foydalanuvchilari, ya'ni talabalar uchun foydalanishda sodda, oson bo'lgan sayt, fondini to'liq raqamlashtirish choralarini ko'rish va masofadan foydalanish imkonini beradigan elektron bazasini yaratish zarur. Axborot-resurs markazlari zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlangan bo'lisi zarur. Axborot-resurs markazlari foydalanuvchilari, asosan, talabalar bo'lganligi uchun ular doimo mustaqil ta'lim olishi, yozma ishlari yozishi mumkin, shuning uchun qo'shimcha ko'rsatilishi zarur (matnlarni chop etish, skaner qilish, nusxa ko'chirish, adabiyotlar ro'yxatini tuzish va boshqalar) Shuningdek, kutubxonachilar ham talabalarga yordam berishga tayyor bo'lisi va xushmuomala bo'lishlari kerak. Axborot-resurs markazlarining asosiy tamoyili foydalanuvchilarga istalgan joyda, istalgan shaklda va istalgan vaqtida axborot manbalarini taqdim etishdan iborat. Axborot-resurs markazi kutubxonachilari, zamonaviy foydalanuvchilarga innovatsion usullardan foydalangan holda zamonaviy xizmat ko'rsatishni bilishi, boshqa madaniyat, din, millat vakillarining manfaatlarini hisobga olishlari, yoshlarga axborot-kutubxona xizmatini ko'rsatishda talabalarning psixologik va individual xususiyatlarini ham hisobga olish zarur. Masalan, oily ta'lim muassasasiga yangi kelgan birinchi kurs talabalarning axborotga bo'lgan ehtiyoji bitiruvchi talabalarning ehtiyojidan katta farq qiladi, doimiy ravishda talabalarda o'z ustida mustaqil ishslash va shaxsiy rivojlantirish, shuningdek, talabaning ijodiy salohiyatini ochib berish, o'qish doirasidan tashqari o'z kasbiga va kasb fanlariga qiziqishini ochib berish kabi ishlarda talabalarni qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega [3,77]. ARM fondi mahalliy nashriyotlardan, boshqa universitetlardan, kitob mualliflaridan, masalan, Toshkent Yuridik universiteti Respublika oliy ta'lim muas-sasalari orasida namunali ARM

faoliyatida mustaqil ta'lif olish uchun foydalaniladigan Glazgo universiteti (London, Buyuk Britaniya, 146 ta kitob), Boston kolleji yuridik fakulteti (86 ta kitob) kabi xorijiy sheriklardan olingan adabiyotlar bilan ta'minlanganligi muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, Nagoya universiteti (36 ta kitob), London yuridik maktabi (37 ta kitob), Finlandiya universiteti (3 ta kitob), shuningdek, Germaniyaning Xalqaro Hamkorlik Jamiyatasi va O'zbekiston Respublikasining "Qizil yarim oy jamiyati tomonidan (1500 ga yaqin kitob mavjud) axborot-resurs markazida hozirgi vaqtida jahon ilmiy huquqiy ta'lif bazalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgan. Bugungi kunda oliy ta'lif muassasalaridagi bunday namunali tizimni joriy etishda keng qamrovli seminar-treninglar olib borilmoqda. Tadqiqot doirasida tahlillarga e'tibor qaratsak, aynan ARMning boy manbalar egaligi asosida kredit-modul tizimiga o'tishi va kredit-modul tizimi AQShda eng birinchilardan joriy etilganligiga guvoh bo'lamic. ECTS kredit-modul tizimi o'zagida ham AQSh akademik kredit tizimi tamoyillari yotadi. Kredit-modul tizimi ilk bor XIX asrning ikkinchi yarmida AQShda joriy etilgan. 1869-yilga kelib, Garvard Universitetiga o'sha davrning eng ilg'or fikrlovchilaridan bo'lgan Charles Elliot prezident etib saylanadi. Garvard Universitetida talabalar o'quv dasturida taklif qilinadigan fanlar orasidan o'zlarini xohlagan, qiziqqan fanlarni tanlab, o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Talaba o'qish dasturini, ma'lum ma'noda, o'zi shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lgan edi. Universitet fanlari ro'yxatini iqtisodiyot, mehnat bozori va talabalar ehtiyojlariga mos fanlar egallay boshlaydi. O'z fanlariga talabalarni jalb qilish maqsadida o'qituvchilar ham dars mashg'ulotlari sifatini yaxshilashga va mustaqil ta'lifni yaxshilashga harakat qila boshlaydi. Dars mashg'ulotlarida talabalarining faolligi ham ancha ortadi. Qat'iy o'quv dasturlardan voz kechgandan so'ng universitet oldida bir qancha savollar tug'ilay boshlaydi. Talabalarining kursdan kursga o'tishi yoki bitirishi qanday mezonlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Talabalarining o'qish dasturidagi rivojlanishini nimalar bilan o'lchash mumkin? Talabalar mutaxassis sifatida shakllanishi uchun qancha bilim egallashi kerak? Oddiy yechim: har bir fanga uning o'qish yuklamasidan kelib chiqib, ramziy o'lchov birliklari, ya'ni kreditlar taqsimlanishi kerakligini his etishadi. Asta-sekinlik bilan boshqa universitetlar ham Garvard Universiteti amaliyotini o'zlarida qo'llay boshlaydi. Qaysi universitetlar shu amaliyotni qo'llasa, yoshlar orasida shu universitetlarga qiziqish orta boshlaydi. Kredit tizimi tamoyillarini AQSh oliy ta'lif muassasalarida yanada kengroq tarqalishining keyingi bosqichi 1900-yillar boshlarida ro'y berdi. 1906-yilda AQShdagi po'lat sanoati magnati, Endyu Karnegi oliy ta'lif muassasalarining o'qituvchilarini qo'llab-quvvatlash maqsadida "Ta'lifni rivojlanish jamg'arma"sini (TRJ) ni tashkil etishadi. Jamg'arma Endyu Karnegi pullarini o'qituvchilarga ular o'qitgan fan kreditlari miqdoriga qarab taqsimlashga qaror qiladi. 1976-yilda Yevropa Ittifoqi davlatlari ta'lif vazirlari mazkur davlatlar universitetlari o'rtasida hamkorlikda o'qish dasturlari joriy etish borasida kelishuvga erishishadi. [1,77] Loyihani amalga oshirish va amaliyotga tatbiq etish uchun loyihaning moliyaviy va huquqiy tomonlarini ishlab chiqishda 10 yildan ko'proq vaqt kerak bo'ldi. 1987-yilda Yevropa ittifoqining London Sammiti davomida ittifoq a'zo mamlakatlari OTMlari o'rtasida talabalar almashinuvini qo'llab-quvvatlovchi Erasmus (ERASMUS) dasturi tashkil etiladi. Dastur muvaffaqiyati uchun eng muhim shartlardan biri bu talabalar xorijda o'rgangan fanlari o'z universitetiga qaytgandan so'ng tegishli ta'lif darajasini qo'lga kiritishlari uchun tan olinishiga erishish edi. 1989-yilga kelib, Yevropa Ittifoqida yangi kredit-modul tizimi qoidalari ishlab chiqiladi va uni European Credit Transfer System (ECTS) deb nomlaydi. Yevropa Ittifoqi davlatlari universitetlari

o'rtasida talabalar almashinuvi rivojlana boshlaydi. 1999-yilga kelib, Yevropada Bolonya ta'lif tizimi jarayoni deb atalgan Yevropa mamlakatlari oliy ta'lif vazirliklari o'rtasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish xalqaro forumi ish boshlaydi. Forumning maqsadi Yevropa davlatlarida oliy ta'lif standartlari va sifatini uyg'unlashtirishga qaratilgan edi. Hozirda ECTS kredit-modul tizimi Yevropaning 48 davlati oliy ta'lif muassasalari tomonidan turli darajada ta'lifni boshqarish usuli sifatida foydalaniib kelinmoqda. Yevropadagi eng qadimgi oliy o'quv yurtlari Salernodagi Oliy tibbiyot maktabi va Bolonya universiteti (Italiya, XI asr), Parij universiteti (Fransiya, XII asr), Kembrij va Oksford universitetlari (Angliya, XIII asr). 1400-yilga kelib, Yevropada 55 ta universitet faoliyat yuritgan va har bir universitetda kutubxona bo'lgan, 1756-yilda ochilgan, Rossiyada Moskva universiteti kutubxonasi o'zining birinchi kunlaridanoq nafaqat universitet, balki ommaviy kutubxona sifatida ham ishladi. O'zbekistonda universitet kutubxonasi 1918-yilda Markaziy Osiyo va Qozog'istonda oliy ta'lif asoschisi hisoblangan Turkiston xalq universiteti, hozirgi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti negizida tashkil etilgan. Bundan tashqari, u butun O'rta Sharqdagi birinchi universitetdir (Tehron universiteti 1934-yilda tashkil etilgan, 1946-yilda Kobul universiteti, O'rta Osiyoda eng qadimgi, Toshkent universitetidan keyin, Samarqand universiteti 1927-yilda tashkil etilgan). Demak, ko'rinib turibdiki, ARM bilan OTMdA kredit tizimni joriy etishda, eng avvalo, bir-biriga integratsion bo'lgan jihatlariga e'tibor qaratamiz. [2,68] ECTS – Kredit to'plash va ko'chirishning Yevropa tizimi, kredit ta'lif olish natijalariga ko'ra talaba tomonidan muayyan fan bo'yicha o'zlashtirilgan o'quv yuklamasining o'lchov birligi hisoblanadi. Kuzatishlarimiz va olib borayotgan tadqiqotlarimiz natijasida OTM Kredit-modul tizimi va ARM faoliyati asosida OTMdA mustaqil ta'lif faoliyatini takomillashtirishning integratsion-metodik yondashuvi asosida bugungi kunning eng dolzarb kredit ta'lifiga xos muammolariga duch kelishimiz tabiiy hol. [1,57]. Ta'lif dasturi – bakalavriat yo'nalishi va magistratura mutaxassisliklaridan biri bo'yicha barcha o'quvme'yoriy hujjatlar majmui, normativ hujjatlar, umumiy ma'lumotlar, xizmat va resurlar, o'quv fanlari dasturlari to'g'risida axborot va h.k. Fanlar katalogi – har bir ta'lif yo'nalishi (mutaxassislik) bo'yicha majburiy va tanlov fanlari haqida ma'lumotlar majmui. Fan kodi, fan nomi, qisqacha tavsifi, kredit miqdori, semestri, PO' haqida ma'lumot; GPA – o'zlashtirgan ballarning o'rtacha qiymati. GPA har semestr va har bir o'quv yilida o'qitilgan fanlar bo'yicha talabaning krediti va baholarining ko'paytmasi va qo'shilmasi o'rtachasini hamda shu asosda talabaning kursdan kursga o'tishi yoki qoldirilishini belgilab beradi, shuningdek, akademik mobillikni amalga oshirish uchun asos bo'ladi. Kredit to'plash – har bir semestr uchun ajratilgan 30 kreditni har bir fan kesimida YN natijasiga qarab, taqdim etiladi. Bunda tegishli semestrda fanlarga ajratilgan kreditlarni olishi uchun talaba ushbu fanlardan YN asosida ijobjiy baho, ya'ni 3, 4, 5 baholar olsagina, ajratilgan kredit to'liq taqdim etiladi. Baholash – OO'MTVning 2018-yil 9-avgustdagি 19-2018-sonli Buyrug'i asosida tasdiqlangan Nizom bo'yicha talabalar fanlar kesimida baholanadi. Bunda fanlardan talabalarni baholash uchun oraliq va yakuniy nazorat turlaridan foydalilanadi. Ammo kursdan kursga qoldirish VMning 2020-yil 31-dekabrdagi 824-sonli Qarori asosida amalga oshiriladi. Akademik qarzdorlik – 1-holatda agar talaba muayyan fandan ON turidan qoniqarsiz baho olsa yoki fanga ajratilgan auditoriya soatlarining 25 foizini va undan yuqorisini sababsiz qoldirsa, YN turiga kiritilmaydi va akademik qarzdor hisoblanadi; 2-holatda agar talaba muayyan fandan YN turidan qoniqarsiz baho olsa yoki ishtiroy etmasa, akademik qarzdor

hisoblanadi. Ikkala holatda ham kredit taqdim etilmaydi. Akademik qarzdorlik talabaning kursdan kursga qoldirish uchun asos bo'lmaydi, lekin GPA qiymatining yetarli bo'lmasligiga olib keladi, natijada, GPA qiymati (2,4 – 3,0 qiymat oralig'da belgilanadi) universitet tomonidan belgilangan miqdor bo'yicha amalga oshiriladi. Akademik qarzdorlikni bartaraf etish uchun talaba o'z hisobidan keyingi semestr davomida yoki yozgi ta'til vaqtida qayta o'zlashtirib, tegishli nazorat turini qayta topshirib, ijobiy baho olish natijasida bartaraf etadi. O'qish yuklamasi – talaba tomonidan o'quv faoliyatining barcha turlari (auditoriya va mustaqil ta'lim mashg'ulotlari, kurs ishi, amaliyotlar) amalga oshirish uchun kreditlarga mos ravishda soatlar hajmi; transkript – talabaning akademik ma'lumotlari hamda har semestrda o'qitilgan fanlar ro'yxati, o'zlashtirilgan baholar, kreditlar va GPA qiymatining ko'rsatgichlarini o'z ichiga olgan namunaviy shakldagi hujjat (Amaldagi baholash daftarchasining muqobili shaklidagi hujjat). talabaning shaxsiy elektron kabineti – talabaga o'quv jarayoniga tegishli ma'lumotlarning o'z elektron sahifasida aks ettirilishi, o'quv reja, fan dasturi, fanlar katalogi, dars jadvalini tuzish, ta'lim trayektoriyasi, stajirovka ma'lumotnomasi, transkript, qaydnomalari, tanlov fan va PO'ni tanlash imkoniyati, o'quv adabiyotlar ro'yxati va h.k. PO'ning shaxsiy elektron kabineti – PO' haqida ma'lumot, o'uvga tegishli ma'lumotlarning o'z elektron sahifasida aks ettirilishi: o'quv reja (ishchi), fan dasturi (sillabus), fanlar katalogi, qaydnama, dars jadvalini tuzish, talabalar ro'yxati, baholash mezonlari, davomat jurnali, o'quv adabiyotlar ro'yxati, savol-topshiriqlar to'plami, shaxsiy ish rejasi, ilmiy-uslubiy ishlari va h.k. Kredit-modul tizimining tamoyillari: shaxsga yo'naltirgan ta'limni tashkil etish (student-centered learning); ta'limda shaffoflikka erishish (transparency); ta'limda moslashuvchanlikni kuchaytirishi (improving flexibility); talabalar mobilligini kuchaytirish (improving student mobility). Barcha turdag'i o'quv ishlari 54, auditoriya mashg'uloti 24-32 soat, o'qishning normativ muddati 4 yil, o'quv jarayoni 204 hafta. ECTS kredit-modul tizimi tarkibi ikki zarur elementdan iborat: o'qish yuklamasi (learning workload) va o'qish natijalari (learning outcomes) Kredit o'quv yuklamasi 30 soat (Learning workloads) 40 %. Kontakt soat (12 soat) 60 %. Mustaqil ta'lim soati soat). Demak, talaba o'quv yuklamasining tarkibiy qismlari – fanlarni kreditlarga ajratish: modular va non-modular – kurs davomida bir xil kredit miqdoriga teng fanlar, kurs davomida har xil kredit miqdoriga teng fanlar. Talaba o'quv yuklamasining tarkibiy qismlari – kreditlar miqdori: bakalavr – 240 kredit, magistratura – 120 kredit. Fanlar: asosiy, tanlov, fakultativ. [1,34]. Xulosa o'rnila shuni qayd etish lozimki, talabaning shaxsiy ta'lim trayektoriyasi talaba tomonida tanlangan hamda unga ketma-ketlikda bilimlar to'plash va xohlagan kompetensiyalar yig'indisiga ega bo'lish imkoniyatini beradigan yo'nalish (marshrut). Ta'lim trayektoriyasi institutsional hujjatlar va yo'riq-nomalar yordamida tuzilishi hamda turli ta'lim trayektoriyalari natijasida bir xil malaka olishga olib kelishi mumkin. Ushbu jarayonda talaba majburiy fanlardan tashqari tanlov fanlarni va PO'larni mustaqil tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. O'quv yilining boshida 1 hafta kredit ta'lim tizimiga kirish haftaligada amalga oshiriladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Usmonov B.Sh., Habibullaev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. T.: "Tafakkur" nashriyoti, 2020. – B. 120.
2. Axmedova M.E. Pedagogika nazariyasi va tarixi (O'quv qo'llanma) – T.: Tafakkur bo'stoni, 2011. – B. 134.
3. Shodmonova Sh.S., M.E. Axmedova va boshalar. Umumi pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2019.
4. Azizzxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.:2006.